

SEARCHFOR COMMON GROUND TASHKILOTI “YUKSALISH” HARAKATI JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
to‘plami



“KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - MUAMMO VA YECHIMLAR”

12-fevral 2025



SEARCHFOR COMMON GROUND TASHKILOTI
“YUKSALISH” HARA KATI
JIZZAX POLITEKNIKA INSITITUTI

“KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusida 2025 yil 12 fevralda o’tkazilgan
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

ЖИЗЗАХ-2025 йил

SEARCH FOR COMMON GROUND TASHKILOTI

“YUKSALISH” HARA KATI

JIZZAX POLITEKNIKA INSITITUTI



“KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - MUAMMO VA YECHIMLAR”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

“A SOCIETY WITHOUT CORRUPTION - PROBLEMS AND SOLUTIONS”
Proceedings of the Republican scientific-practical conference

«ОБЩЕСТВО БЕЗ КОРРУПЦИИ – ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»
Материалы Республиканской научно-практической конференции

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

(O‘zbekiston Respublikasi, Jizzax shahri, 12 fevral 2025 yil)

“Search for Common Ground tashkiloti”, “Yuksalish” harakati va Jizzax Politeknika insitituti hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonning 6-yo‘nalish 84-maqsadi, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yil” davlat dasturi hamda “#YOSHXABARDOR” loyihasi asosida qo‘lga kiritilgan “KORRUPSIYASIZ JAMIYAT: MUAMMO VA YECHIMLAR” nomli ID STD092 – sonli grant dasturi doirasida o‘tkazildi.

JIZZAX-2025

TAHRIR HA'YATI

Mas'ul muharrir: **X.I.Xidirov** – falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent, Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası

Taqrizchilar: **Sh.B.Turatov** – falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent,
Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası

T.G.Ibaydullliyev - falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent,
Kazan davlat universiteti Jizzax filiali

Tahrir hay'ati: **Dotsentlar.** B.Uzoqov, P.M.Qulmatov, A.J.Ro'ziyev, O.A.Abduvaliyev, B.Ya.Rashidova, S.I.Mamanazarov, G.B.Azamatova, Q.K.Razzoqov, M.A.Tojiboyev, loyiha rahbari D.Turg'unova va boshqalar.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”., O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2016-yil 24-noyabr <https://lex.uz/mact>
2. Susan Rose-Ackerman., "Korrupsiya: Tushunish va Kurashish" (Corruption: Understanding and Combating It)
3. Daniel Kaufmann va Aart Kraay., "Korrupsiya va Uning Ijtimoiy Ta'siri" (Corruption and Its Social Impact)
4. Turgunov B.R. «Talabalarda intellektual salohiyat namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» nomli ilmiy maqola Buxoro OAK UO‘K 159.937-053.(087.5) ISSN 2181-5291 № 3, 2023 www.buxdu.uz 154-158 betlar
5. Turgunov B.R. Социально-психологические особенности проявления интеллектуального потенциала у учащихся и возможности его развития, Вестник интегративной психологии Выпуск 31 часть 2 2024 журнал для психологов Основан в 2002 г. ISBN 978-5-9527-02-16-5 379-384 betlar

**BYUDJET TASHKILOTLARINING OCHIQLIGI VA SHAFFOLIGI
MASALASI – DAVR TAQOZOSIDIR**

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich
O‘zMU Jizzax filiali tadqiqotchisi

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida byudjet tizimini yanada rivojlantirish, xarajatlar smetasini tuzishda byudjet tashkilotlariga keng imkoniyatlar berish bilan bir vaqtda byudjet xarajatlarini oshishiga yo‘l qo‘maslik iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari hisoblanadi. Bugun O‘zbekistonda byudjet ma‘lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadlari izchillik bilan amalga oshirib kelinayapti. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad davlat byudjeti mablag‘laridan samaraliroq foydalanish hisobiga fuqarolar farovonligi oshirilishini ta‘minlash va aholining ijtimoiy ne‘matlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan ta‘kidlash lozimki, taraqqiyotning yangi bosqichida ta‘lim tizimi barqaror rivojlanmoqda, O‘zbekistonning jahon xamjamiyatida munosib o‘rin egallashi, uning jadal ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omil rolini bajarmoqda. Shu bilan birgalikda, mamlakatning jadal taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yishi, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, uning xarajatlarini optimallashtirish zaruriyati vujudga keldi. Tahlillar tasdiqlaydiki, ta‘lim tizimida byudjet mablag‘laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish xollari uchramoqda. Buning asosiy sababi, ta‘lim muassasalarini moliyalashtirish va davlat moliyaviy nazorati tizimiga oid bo‘lgan normativ huquqiy asoslarning mukammal emasligidadir. Shuningdek, byudjet mablag‘larining xarajati, sarflanishi va undan samarali foydalanish tizimi ustidan monitoring olib boradigan muassasa, bu davlat moliyaviy nazoratidir. Bunday sharoitda davlat moliyaviy nazorati tizimida samaradorlik kutilgan darajada emas. SHuni alohida ta‘kidlash kerakki, ta‘lim tizimida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish masalalarini yoritib bergan va

ushbu jarayonda davlat moliyaviy nazorati mazmuni, moxiyati, maqsadlari, uning natijalariga bag'ishlangan kompleks, chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan. Nazorat tadbirlarini o'tkazishning zamonaviy uslublari to'liq ishlab chiqarilmagan, davlat va nodavlat moliyaviy nazorat tizimi o'rtasidagi xamkorlik, davlat moliyaviy nazorati tadbirlariga mustaqil auditorlarni ishtiroki va ularning materiallardan foydalanish jarayonida kamchiliklar mavjud⁸¹.

Alohida qayd etish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat, deb e'lon qilinib, inson qadrini yanada ulug'lash va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlatning konstitutsion majburiyatlari alohida muhrlab qo'yildi. Bosh qomus asosida davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko'paytirildi. Shu bois, bu yo'nalishda davlat byudjetidan har yili qo'shimcha 30-40 trillion so'm ajratib boriladi.

Fuqarolarni byudjet jarayoniga jalb qilish mexanizmining ishga tushirilishi joylarda aholini qiynab kelayotgan muammolarning echimini topish va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo'lib xizmat qilmoqda⁸².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev byudjet mablag'laridan foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha doimiy ravishda, har bir yig'ilishda alohida ta'kidlab kelmoqda. Bugun dunyodagi murakkab jarayonlar iqtisodiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Mablag' topish, jamg'arish, ko'paytirish tobora qiyin bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda bor manbalardan samarali foydalanish, tejamkorlik va aniqlik yanada muhim.

Yurtimizda 30 mingga yaqin byudjet tashkiloti va davlat korxonalari bo'lib, ularni joyiga chiqib o'rganishga ko'p vaqt va mablag' ketadi. Shuning uchun Hisob palatasida "Masofaviy nazorat markazi" ishga tushirildi. Endi ilg'or xorijiy tajriba asosida 36 ta risk-tahlil mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish zarurligi alohida masaladir.

So'nggi yillarda hududlar rivojiga katta mablag'lar yo'naltirilayapti. Lekin mahalliy kengashlar byudjet muhokamasida asosan viloyat yoki tuman byudjeti bilan cheklanayapti. Bu – har bir hududga barcha manbalardan berilayotgan mablag'larning 65-70 foizi ularning nazoratidan chetda qolayapti⁸³.

Xulosa sifatida qayd qilish lozimki, ta'lim tizimidagi davlat moliya nazorati, markazlashgan byudjet tizimini boshqarishning muhim shaklidir. Bu jarayon, davlat moliya nazoratini amalga oshirishga davlatning maqsadli dasturlari, yo'l xaritasini bajarishda muxim rol o'ynaydi, moliyaviy barqarorlikni va moliya tizimiga doir qonunchilikni ta'minlaydi. Davlat moliya nazorati ta'lim tizimida byudjet mablag'larini foydalanish jarayonida sodir bo'layotgan kamchiliklarni aniqlaydi, javobgar shaxslar tomonidan qonunchilikni buzish xolatlarini tahlil qiladi va uning sabablarini ko'rsatib beradi. Davlat moliya nazoratining muhim jihati ta'lim tizimida yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni asoslab beradi va javobgar shaxslarni jazoga tortish

⁸¹ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/6_Khakimov.pdf

⁸² <https://uzbekistan.org/uz/%D1%9E%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%BD-%D0%B1%D0%BE%D1%88-%D0%BC%D0%B0%D2%9B%D1%81%D0%B0%D0%B4-%D1%85%D0%B0%D0%BB%D2%9B%D0%BD%D0%B8%D0%BD%D0%B3-%D1%84%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0%B2/3384/>

⁸³ <https://president.uz/uz/lists/view/7388>

bo'yicha takliflar tayyorlaydi. Davlat moliya nazorati ta'lim tizimida byudjet mablag'larini foydalanishni tahlil qilish jarayonida, tashqi, ichki, dastlabki, joriy va yakuniy shaklda o'tkazilishi mumkin. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarining moliyaviy faoliyati ya'ni, byudjet, soliq, bojxona, valyuta, kredit, investitsiyalar va boshqa jixatlari o'rganilishi mumkin. Davlat moliya nazorati usullari sifatida moliyaviy xolatni taxlil qilish, moliyaviy ekspertiza va reviziya shaklida o'tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/6_Khakimov.pdf
2. <https://uzbekistan.org/uz/%D1%9E%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%BD-%D0%B1%D0%BE%D1%88-%D0%BC%D0%B0%D2%9B%D1%81%D0%B0%D0%B4-%D1%85%D0%B0%D0%BB%D2%9B%D0%BD%D0%B8%D0%BD%D0%B3-%D1%84%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0%B2/3384/>
3. <https://president.uz/uz/lists/view/7388>

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDAGI MUAMMOLAR

Aziza Karimova O'zbek-Fin pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi.

Zikriyeva Jasmina

O'z-Fin pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti 1- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat ilzdining ayanchli kushandasi bo'lmish korrupsiyaning kelib chiqishi va korrupsiya bilan kurashishdagi muammolar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, demokratiya, profilaktika

Aholining huquqiy savodxonligi pastligi – qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunning 16, 17, 18- moddalarida o'z ifodasini topgan.

Umuman, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat hokimiyati organlariga muayyan qarorlarni qabul qilish bo'yicha murojaat etish, davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha so'rovlarni amalga oshirish, davlat hokimiyati organlari va mahallalar hududlaridagi korxona va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish kabi shakllarda yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda. Qolaversa, bugungi kunda davlat Dasturlari talablarining fuqarolar yig'ini hududidagi ijrosini

10. Усмонова В. ХУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 70-74.

11. Usmanova V. INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 131-138.

TA'LIM TIZIMIDA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISHDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich
O'zMU Jizzax filiali tadqiqotchisi

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, byudjet tashkiloti, ochiqlik, shaffoflik, samarali foydalanish, nazorat qilish, samaradorlik va h.k.

Annotatsiya: Maqolada davlat tashkilotlarining byudjet mablag'laridan samarali foydalanish jarayonidagi ochiqlik va shaffoflik tizimining yo'lga qo'yilganligi hususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda davlatning har bir tizimga ajratadigan mablag'laridan samarali foydalanish jarayonidagi yo'llari bevosita ushbu tizimlarning yanada sifatli ishlashiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Jumladan, ta'lim tizimiga davlat tomonidan ajratilayotgan maqsadli byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar tahsinga sazovordir. Bunda bevosita har bir tizim tarkibiga kiradigan tashkilotlarning ham o'z hissasi bor. Bugun O'zbekistonda byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadlari izchillik bilan amalga oshirib kelinayapti. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad davlat byudjeti mablag'laridan samaraliroq foydalanish hisobiga fuqarolar farovonligi oshirilishini ta'minlash va aholining ijtimoiy ne'matlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Alohida qayd etish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat, deb e'lon qilinib, inson qadrini yanada ulug'lash va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlatning konstitutsion majburiyatlari alohida muhrlab qo'yildi. Bosh qomus asosida davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko'paytirildi. SHu bois, bu yo'nalishda davlat byudjetidan har yili qo'shimcha 30-40 trillion so'm ajratib boriladi. Fuqarolarni byudjet jarayoniga jalb qilish mexanizmining ishga tushirilishi joylarda aholini qiynab kelayotgan muammolarning echimini topish va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo'lib xizmat qilmoqda⁹⁵.

⁹⁵<https://uzbekistan.org/uz/%D1%9E%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%BD-%D0%B1%D0%BE%D1%88-%D0%BC%D0%B0%D2%9B%D1%81%D0%B0%D0%B4-%D1%85%D0%B0%D0%BB%D2%9B%D0%BD%D0%B8%D0%BD%D0%B3-%D1%84%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0%B2/3384/>

Bugun dunyodagi murakkab jarayonlar iqtisodiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Mablag‘ topish, jamg‘arish, ko‘paytirish tobora qiyin bo‘lib bormoqda. Bunday sharoitda bor manbalardan samarali foydalanish, tejamkorlik va aniqlik yanada muhim. Yurtimizda 30 mingga yaqin byudjet tashkiloti va davlat korxonalari bo‘lib, ularni joyiga chiqib o‘rganishga ko‘p vaqt va mablag‘ ketadi. Shuning uchun Hisob palatasida “Masofaviy nazorat markazi” ishga tushirildi. Endi ilg‘or xorijiy tajriba asosida 36 ta risk-tahlil mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi. So‘nggi yillarda hududlar rivojiga katta mablag‘lar yo‘naltirilayapti. Lekin mahalliy kengashlar byudjet muhokamasida asosan viloyat yoki tuman byudjeti bilan cheklanayapti. Bu – har bir hududga barcha manbalardan berilayotgan mablag‘larning 65-70 foizi ularning nazoratidan chetda qolayapti, deganidir⁹⁶. Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilib, byudjet ma’lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, ularining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shaffoflik va ochiqlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, bu orqali davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga erishilmoqda.

Byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini ta’minlashda maqsadli indikatorlar doirasida Dasturiy byudjetlashtirish tizimi ham yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizim byudjet sohasidagi qonunchilik doirasida byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish maqsadida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish imkonini beradi. SHuningdek, o‘rnatilgan nazorat tizimi vazirliklar va idoralarning ustuvor vazifalar bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishishi va ularning ijrosi yuzasidan javobgarligini kuchaytiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham Davlat byudjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi. Mazkur normalar davlat byudjetini shakllantirish, uning daromad va xarajat qismlarini belgilash, ijrosini ta’minlashda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish, ularga bu jarayonda keng va faol qatnashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun tegishli tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlar yaratadi.

Davlat byudjetidan maqsadli foydalanishni ta’minlash aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga zarur yordam ko‘rsatish, uy-joy bilan ta’minlash, tadbirkorlik, davlat va jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarida samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, fuqarolar bilan ochiq va oshkora muloqotning yo‘lga qo‘yilishi byudjet jarayoni samaradorligini oshiradi, byudjet tizimi, barcha darajalardagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini shakllantirish va ijro etilishi to‘g‘risida ma’lumot bilan aholining xabardor bo‘lishini ta’minlaydi.

⁹⁶ <https://president.uz/uz/lists/view/7388>

1. <https://uzbekistan.org/uz/%D1%9E%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%BD-%D0%B1%D0%BE%D1%88-%D0%BC%D0%B0%D2%9B%D1%81%D0%B0%D0%B4-%D1%85%D0%B0%D0%BB%D2%9B%D0%BD%D0%B8%D0%BD%D0%B3-%D1%84%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0%B2/3384/>
2. <https://president.uz/uz/lists/view/7388>

FUQAROLARNING HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDAGI MUHIM VOSITA SIFATIDA

Mamadiyarov Sherzod Saparboyevich
Baxmal tumani 11 maktab Ijtimoiy fanlar
o‘qituvchisi, Metod birlashma raxbari

Kalit so‘zlar: Davlat, korrupsiya, fuqaro, huquqiy madaniyat, salbiy illat, qonun va h.k.

Annotatsiya: Maqolada korrupsiyaga qarshi kurshishda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish yo‘llari va usullari haqida so‘z boradi.

Fuqoralarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali, har bir yurtdoshimiz o‘z haq-huquqini anglab olmas ekan, qonun asosida yashamas ekan korrupsiyadek illatni, yo‘qotishdek maqsadga erishish qiyin kechadi. Biroq, aholi fuqoralarimiz ongida eski tuzum asoratlari—qonun talablariga loqayd munosabat o‘z haq-huquqini yaxshi bilmaslik, o‘gallarning huquqini hurmat qilmaslik kabi illatlar butunlay barham topgan emas. Xalq ongida eskilik asoratlari saqlanib qolayotganini sabablaridan biri, mavjud kamchiliklarni ochiq-oshkor aytib yashash ko‘nikmasining yo‘qligidir. Bu borada matbuot namuna bo‘lishi va oshkorlik har bir fuqaroning turmush tarziga aylanishi lozim. "Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, balki demokratik odil jamiyat barpo etish maqsadidamizdir. SHunday ekan, demokratik odil jamiyatning muhim shartlaridan biri qonun ustuvorligi, adolat tantanasidir. Qonunli jamiyat qurishga kirishgan ekanmiz, har kim u kim bo‘lmasin, jamiyatda qonun ustuvor bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shishi qonun asosida yashashi, turmush kechirishi, demokratik huquqiy hayot kechirishishi lozim"⁹⁷. Goho ayrim chet el fuqarolarining hatti-harakatlaridan hayratga tushamiz: deylik, noto‘g‘ri tashhis qo‘ygani uchun bemor shifokorlarni sudga berib, yaxshigina tavon puli o‘ndirishi, yoiniki, yo‘l harakati qoidasini buzib kerakli jarima to‘lagan amaldor haqidagi biz uchun ertakdek tuyuladi. Holbuki, o‘sha chet eldagi "qonunchi" fuqoradan bizning kam joyimiz yo‘q. Huquqlarimiz kafolatlangan qonunlar bizda ham bor. Biroq yuqorida qayd etganimiz o‘zbekcha andisha tufayli aksar holda maoshni o‘z vaqtida bermay, ro‘zg‘ordan baraka qochishga sababchi

⁹⁷ Каримов И.. «Максадимиз - тинчлик, Барқарорлик, ҳамкорлик» Ўзбекистон телевидениеси, мухбирининг саволларига жавоблар 1995 йил 27 октябрь, «Бунёдкорлик йўлидан», 4 том, Тошкент, Ўзбекистон - нашриёти 1996 йил, 79 бет.

qizi KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH	
Pulatov Otabek A'zamjon o'g'li KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA MILLIY QONUNCHILIK TIZIMI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI	450-454
Bo'ltakova Roziya Xasan qizi, Jazilova Feruza Shavkat qizi, Mamatmusayeva Dilso'z O'razali qizi TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYANING ASOSIY SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	455-457
Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi, Ismoilova Marjonaxon KORRUPSIYASIZ JAMIYAT-TARAQQIYOT KAFOLATI	457-460
S.M.Ro'zimurodov, M.Abdurahmonov YOSHLARDA OMMAVIY MADANIYATGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	460-465
Axmedova Dilnozaxon, Kurganova Sug'diyona Abdusalom qizi "HALOLLIK VAKSINASI"YOSHLARNING SHAXSIY VA KASBIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	465-466
Abdusamatov Qudratjon G'ayratjon o'g'li TA'LIM SOHASIDA KORRUPSION HOLATLARNI OLDINI OLISH MASALALARI	466-467
Ortiqov Shahridin TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKILLANTRISH MASALALARI DAVR TALABI SIFATIDA.	467-469
Turgunov Baxromjon Raximjonovich KORRUPSIYASIZ TA'LIMNING KELAJAGI-IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI	469-473
Xaydarov Baxrom Xolmuradovich BYUDJET TASHKILOTLARINING OCHIQLIGI VA SHAFFOLIGI MASALASI – DAVR TAQOZOSIDIR	473-475
Aziza Karimova, Zikriyeva Jasmina KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDAGI MUAMMOLAR	475-477
Mavlonova Nargiza Eshquzievna BOSHQARUV TIZIMIDA AYOLLAR ISHTIROKINI KENGAYTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	477-480
Odilova Feruza Odilovna PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNI VATANGA MUXABBAT TUYGUSINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA RAHBARNING VAZIFALARI	480-483
Mavlonova Nargiza Eshquzievna INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XOTIN-QIZLARNING MEHNAT FAOLIYATINI BOSHQARISH	483-488
Odilova Feruza Odilovna BITIRUVCHILARNING KASBIY LAYOQATI VA BIZNES KO'NIKMALARI	489-494
Usmonova Vasila Botirovna RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA XIZMATLAR SOHASINI YANADA	494-498

RIVOJLANTIRISH MASALALARI	
Xaydarov Baxrom Xolmuradovich TA'LIM TIZIMIDA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISHDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH MASALALARI	498-500
Mamadiyarov Sherzod Saparboyevich FUQAROLARNING HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDAGI MUHIM VOSITA SIFATIDA	500-502
Eshmamatova Ruxshona Tulqin qizi, Toshpulotova Mohinur Akramjonovna, Tog'ayeva Durdona Fahriddin qizi SHAFFOFLIK VA ADOLAT YO'LIDA	503-504
Asrayev Shavkat Baxtiyor o'g'li TA'LIM, SOG'LIQNI SAQLASH VA MEHNAT MUNOSABATLARIDAGI KORRUPSION HOLATLARINI OLDINI Olish MASALALARI	505-510
Shodiyorov Eldor Sharif o'g'li “KORRUPSIYADAN BIZNI XALOS ETUVCHI OMILLAR”	510-512
Orif Shukurov. YOSHLAR TARBIYASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARING AHAMIYATI	512-514
Mahmudova Madinabonu OLIY TALIM TALABALARIGA KORRUPSIYA TO'G'RISIDA MA'LUMOT BERISH	515-517
Xolboyev Sardor Dilmurod o'g'li. KORRUPSIYA – JAMIYAT VA DAVLAT HAYOTIGA SALBIY ILLAT SIFATIDA	518-520
Orif Shukurov. YOSHLAR-ISLOHOTLAR BUNYODKORI	520-521
Ziyotdinova Sarvinoz YOSHLAR ONGIGA KORRUPSIYA KELAJAK ZAVOLI EKANLIGI HAQIDAGI G'OYALARNI SINGDIRISH USULLARI	522-524
Burliyev Abdulla Ubaydullayevich, Obidov Zohid MEHNAT MUNOSABATLARIDA KORRUPSION HOLATLARNING OLDINI OlishDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH ZARURATI	524-525
O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li hamda Toshpo'lotova Jasmina Nuriddin qizi KORRUPSIYA VA JAMIYAT TARAQQIYOTI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	526-529
Ne'matov Akmaljon Lapasovich КОРРУПЦИЯГА ИЛЛАТЛАРИГА КУРАШИШ – ХАР БИР ФУКАРОНИНГ ВАЗИФАСИДИР	529-533
Qarshiboyev Nizomiddin Abdumalik o'g'li, Uralova Iroda Abduvali qizi, Karshiboyeva Aziza Shavkat qizi KORRUPSIYA-INSONIYAT OLDIIDAGI GLOBAL XAVF XATARDIR	533-536